

Shavkat Mirziyoyev Si Szinpinni tabrikladi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinga milliy bayram - XXR tashkil topgan kun munosabati bilan. Davlatimiz rahbari Xitoy yetakchisiga mustaham sog'lik, oilaviy baxt va katta muvaffaqiyatlar, do'st Xitoy xalqiga esa tinchlik-osoyishtalik va ravnaq tiladi.

"Xitoyning global xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, yangi tahdid va xatarlarga, shu jumladan iqlim o'zgarishi va COVID-19 pandemiyasiga qarshi samarali kurashishdagi faol sa'y-harakatlari va salmoqli hissasi eng yuksak e'tirofqa munosib.

Keyingi yillarda O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi o'zaro hurmat, ishonch va qo'llab-quvvatlash tamoyillariga asoslangan do'stlik va har tomonlama strategik sheriklik munosabatlari izchil rivojlanib borayotganini katta mamnuniyat bilan qayd etmoqchiman.

O'rtamizdagi do'stona, o'zaro ishonchga asoslangan mustahkam shaxsiy munosabatlarimizni chin dildan e'zozlayman. Sizning ko'p qirrali O'zbekiston-Xitoy hamkorligiga qaratayotgan alohida e'tiboringizni yuksak qadrlayman.

Ishonchim komil, Sizning bo'lajak davlat tashrifingiz va Shanxay hamkorlik tashkilotining O'zbekistondagi sammitida ishtirokingiz mamlakatlarimiz o'rtasidagi keng ko'lamli sheriklikni yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi", - deyiladi maktubda.

Manba